



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“TASDIQLAYMAN”
Rektor Sh. Sirojiddinov “KELISHILDI”
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi
2019-yil “1” 07 2019-yil “4” 10

Ro‘yxatga olindi: №BD-5111200-3.01

2019-yil “17” 08

ONA TILINI O‘QITISH METODIKASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha
Ta‘lim sohasi: 110 000 – Pedagogika
Ta‘lim yo‘nalishi: 5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2019-yil 17.08 dagi "4" - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 4.10 dagi "892" - sonli buyrug'ining 2 - ilovasi bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

T.Yusupova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

I.Azimova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

K.Mavlonova Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Jiyanova N. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Sobirov A. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti fakulteti Leksikografiya va dialektologiya kafedrasida professori, f.f.d.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2019-yil 1.07 dagi "1" - sonli bayonnomasi).

h/m. Abdullayeva M. Olovchi
A. P. Ergashev

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ona tilini o'qitish metodikasi fani ta'lim bosqichlarida olib boriladigan dars turlari, ona tilini o'qitishning turli zamonaviy metod va usullaridan foydalanish jarayoni, o'quvchilarga ona tilidan bilim va malaka berish yo'llari, ona tili ta'limining asosiy vazifasi bo'lgan o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, o'zini, o'zgalarni va borliqni til vositasida anglashni hamda fikr va his-tuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishga o'rgatish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Mazkur fan pedagogikaning xususiy didaktik siklidagi fanlardan biri bo'lib, tilshunoslik fanlari hamda ona tili ta'limi jarayonlari bilan bog'liqdir va "Nima o'qitiladi?", "Qanday o'qitiladi?", "Qanday tashkiliy shakllar vositasida o'qitiladi?" degan savollarga javob izlaydi. "Ona tilini o'qitish metodikasi" fani o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha yetuk kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimida ona tilini o'qitishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

"Ona tilini o'qitish metodikasi" fanini o'qitishdan maqsad – ona tili ta'limining ilmiy-nazariy asoslarini, o'qitishning eng qulay va zamonaviy metodlarini ta'limning turli bosqichlarida qo'llay olishni, bo'lajak o'qituvchilarga qo'yiladigan kasbiy talablar asosida ona tili fanini zamon talablari darajasida o'qitishning samarali metodlari, shakl va usullarini o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq qilishning pedagogik-metodik imkoniyatlarini yoritishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan zaruriy bilimlar, amaliy ko'nikmalarni egallash, kasbiy-pedagogik hamda metodik ko'nikma va malakalarni shakllantirish, mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyati, o'qituvchilik kasbiy madaniyatini kamol toptirishga o'rgatish vazifalarini bajaradi. Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi: *Talaba:*

– ona tilini o‘qitish metodlari, usullari, ularning nazariy asoslari, ona tili fanining ta’lim tizimida tutgan o‘rni, ona tilining har bir sathi doirasida o‘quvchilarga beriladigan BKMlar majmuasi, ona tili va adabiyot o‘qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyatining nazariy-metodik asoslari, pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodikasi to‘g‘risida *tasavvurga ega bo‘lishi* (bilim);

– o‘zbek tili fani bo‘yicha o‘quvchilarni mustaqil tahsil olishga yo‘llash, ona tili fani bo‘yicha o‘quvchilar bilimini baholay olish, darslarni loyihalashtirish va tashkil etish metodlarini to‘g‘ri tanlash, muammolar yechimlarini topa olishni *bilishi va ulardan foydalana olishi* (ko‘nikma);

– umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’limda ona tili ta’limi mazmuni, bu fanlarni o‘qitishda uning qismlari, boblariga xos xususiyatlarini tahlil qila olish, o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini faollashtirishga qaratilgan dars usullaridan foydalanish, darsdan tashqari mashg‘ulotlarni aniq va maqsadli tashkil eta olish, o‘z shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish *malakalariga ega bo‘lishi* kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)

1-modul. Ona tilini o‘qitishning umumiy masalalari

1-mavzu. Ona tili ta’limi jarayonini tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslari

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ta’lim va tarbiya jarayonlarining asosiy qonun hujjati sifatida. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturi. “Davlat tili to‘g‘risida”gi va “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida”gi qonunlarning til ta’limida tutgan o‘rni. Ona tilini o‘qitish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “PF-4797-sonli farmonining mazmun mohiyati va uning ona tili ta’limi oldiga qo‘ygan vazifalari xususida.

2-mavzu. Ona tili o‘qitish metodikasi mustaqil fan sifatida

“Ona tilini o‘qitish metodikasi” fanining maqsad va vazifalari. Ona tilini o‘qitish metodikasi fanining tarixiy shakllanishi, rivojlanishi.

Ona tili o'qitish metodikasining tekshirish (ilmiy-tadqiqot) metodlari. Ona tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar (falsafa, mantiq, pedagogika, psixologiya, tilshunoslik, adabiyot) bilan aloqadorligi.

Ona tili o'qituvchisi va unga qo'yiladigan kasbiy talablar.

3-mavzu. Ona tilini o'qitishga doir yondashuv va tamoyillar

Ona tilini o'qitishga doir yondashuvlar. Ona tili o'qitishning umumdidaktik tamoyillari: ta'lim, tarbiya va rivojlanishning uyg'unligi, ilmiylik va tushunarlilik, uzviylik va uzluksizlik, nazariyani amaliyot bilan bog'lash, onglilik, faollik va mustaqillik, ko'rgazmalilik, ilmiylik, tizimlilik va izchillik tamoyillari. Ona tili o'qitishning o'ziga xos tamoyillari. Ona tili o'qitishda integrativ yondashuv. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari.

2- modul. Ona tilini o'qitish metodlari tasnifi, turlari va mazmuni

1-mavzu. Ona tilini o'qitish metodlari

“Tamoyil” va “metod” tushunchalari. Ona tilini o'qitish metodlari tasnifi. Til ta'limida o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari.

Ona tilini o'qitish metodikasida modulli, masofaviy, eksternat, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim turlarining mazmuni.

An'anaviy va noan'anaviy darslar.

2-mavzu. Ona tili darslarining tiplari

Ona tili darslarining maqsad va tuzilishiga ko'ra tasnifi: ta'limiy va nazorat darslari. Ta'limiy darslarning tasnifi: yangi bilim berish darsi; ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari; o'rganganlarni takrorlash darslari; xatolar ustida ishlash darslari. Nazorat darslarining tasnifi. Ona tili darslarida o'quvchilarning eshitib tushunish, o'qib tushunish, og'zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish.

3-mavzu. Til ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar

Ona tili darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalar. Innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilingan darslarda kafolatlangan natijaga erishish omillari.

4-mavzu. Til ta'limida axborot – kommunikatsiya texnologiyalari

Ona tili darslarida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish metodikasi. Ona tili darslarida qo'llaniladigan grafik-organayzerlar.

Multimediya dasturlari. Taqdimot materiallariga qo'yiladigan didaktik talablar.

5-mavzu. Ona tili ta'limida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish

Rivojlangan xorijiy davlatlar (Angliya, Germaniya, Koreya, Yaponiya) ta'lim tizimida ona tilini o'qitish tajribasi, metodlari va ulardan foydalanish.

3- modul. Ona tili ta'limi vositalari

1-mavzu. Ona tili fani bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari mazmuni

Ona tilidan uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti mazmuni. O'quv dasturining tarkibi va mazmuni. Chuqurlashtirilgan ona tili dasturlari mazmuni. Chuqurlashtirilgan dasturlar asosida ishlash usullari.

2-mavzu. Kompetensiyaga yo'naltirilgan ona tili o'quv dasturi

Ona tili ta'limi orqali o'quvchilarning tayanch, lingvistik va nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish usullari. Nutqiy kompetensiyalar: tinglab tushunish, o'qish, gapirish yozish. Lingvistik kompetensiyalar: fonetik, leksik, grammatik va ta'lim bosqichlari uzviylashtirilgan DTSda ularga qo'yiladigan talablar. Ona tilidan til sathlarini o'rganishda o'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish bo'yicha umumta'lim maktablari, akademik litsey DTS, dastur va darsliklarining tarkibi va mazmuni.

3- mavzu. Uzluksiz ta'limning ona tili fanidan darsliklarning tuzilishi va mazmuni

Darslik va unga qo'yiladigan talablar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Ona tili" darsliklarining tuzilishi va mazmuni.

Akademik litseylar hozirgi o'zbek adabiy tili va kasb-hunar kollejlari ona tili darsliklarining o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv va metodik qo'llanmalar haqida ma'lumot. Lug'atlar, qomuslar, axborot-ma'lumot manbalari va ulardan foydalanish usullari.

4-mavzu. Ona tili o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlar

Umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili fanidan tuziladigan yillik, yarim yillik, choraklik rejalar. Taqvimiy-mavzu rejalarini tuzish. Dars ishlanmasi o'qituvchining asosiy ish hujjati sifatida.

Dars kuzatish va dars tahlili: metodologik tahlil, psixologik tahlil, pedagogik tahlil.

4- modul. Ona tili bo'limlarini o'qitish metodikasi

1-mavzu. Fonetika bo'limini o'qitish metodikasi

Fonetika o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Nutq tovushlarini o'qitish metodlari. Fonetikani o'qitishning grafika, orfoepiya va orfografiya bo'limlari bilan uzviy bog'liqligi. O'quvchilarda bu bo'limlar yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish usullari.

2-mavzu. Leksikologiya bo'limini o'qitish metodikasi

Leksikologiya o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. So'z, uning lug'aviy ma'nosi, ma'no ko'chish yo'llari ustida ishlash usullari. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarini o'qitish orqali o'quvchilar nutqini o'stirish metodikasi. O'zbek tili lug'at tarkibi qatlamlari ustida ishlash usullari.

Frazeologiyani o'qitishning maqsad, vazifalari va metodlari. Frazeologik birliklar o'quvchilar nutqini o'stiruvchi vosita sifatida.

Leksikografiya o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Lug'at va uning turlarini o'qitishning o'ziga xosligi. Lug'at tarkibidan to'g'ri foydalanish omillari.

Leksik tahlil metodikasi.

3-mavzu. Morfemika va so'z yasalishini o'qitish metodikasi

Morfemikani o'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari va uning orfografiya bilan uzviyligi. So'z tarkibi: asos va qo'shimchalar, qo'shimchalarning

turlarini o'qitish metodikasi. Ona tili darslarida morfem lug'atlarning o'quv materiali sifatidagi o'rni.

So'z yasalishini o'qitishning maqsad, vazifalari va metodlari. So'z yasash usullarini o'qitish orqali o'quvchilarning so'z boyligini oshirish yo'llari.

Morfemik tahlil metodikasi.

4-mavzu. Morfologiyani o'qitish metodikasi.

Morfologiya o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. So'zlarning grammatik ma'nosi ustida ishlash usullari. Mustaqil so'zlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari. Fe'l, ot, sifat, son, olmosh va ravish so'z turkumlarini zamonaviy vositalar asosida o'qitishni loyihalashtirish.

Yordamchi so'z turkumlarini o'qitish metodikasi. Modal, undov va taqlid so'zlarni o'qitishda qo'llaniladigan metod va usullar.

Morfologik tahlil metodikasi.

5-mavzu. Sintaksis bo'limini o'qitish metodikasi

Sintaksis bo'limini o'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari va uning boshqa bo'limlar bilan aloqadorligi.

So'z birikmasini o'qitish metodikasi. So'z birikmasining bog'lanish usullari ustida ishlash. So'z birikmasi tahlilini o'tkazish metodikasi.

Gap sintaksisini o'qitish metodikasi. Gapning asosiy belgilari, ifoda maqsadi va tuzilishiga ko'ra turlarini o'qitishga innovatsion yondashuv. Sintaksisning punktuatsiya bo'limi bilan uzviy bog'liqligi.

Sodda gapni o'qitish metodikasi. Gap bo'laklari ustida ishlash. Sodda gap tahlilini o'tkazish metodikasi.

Qo'shma gapni o'qitish metodikasi. Qo'shma gap turlarini o'rgatish usullari. Qo'shma gap tahlilini o'tkazish metodikasi.

6-mavzu. Punktuatsiya o'qitish metodikasi

Puntuatsiya o'qitishning o'ziga xosligi. Punktuatsion xatolarning tiplari. Tinish belgilarining qo'llanishi ustida ishlash usullari.

7-mavzu. Nutq uslublari ustida ishlash metodikasi

Nutq uslublari bo'limini o'qitishning maqsadi, vazifalari va tamoyillari. Nutq uslublarning o'ziga xos jihatlari va uni o'qitishda integrativ yondashuv. Nutq uslublarni o'qitish orqali o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish metodikasi.

8-mavzu. O'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish mazmuni

Til sathlarini o'rganishda o'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari. Til sathlarini o'rganishda og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqni o'stirish usullari.

9- mavzu. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi

Darsdan tashqari ishlarning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari: 1) fakultativ; 2) sinfdan tashqari ishlar; 3) til to'garaklari; 4) ko'rik-tanlovlar; 5) til bayramlari; 6) fan olimpiadalari; 7) maktab va akademik litsey devoriy gazetlari; 8) konferensiyalar. Darsdan tashqari ishlarning til ta'limida tutgan o'rni. Ona tili o'quv xonasini jihozlash.

5- modul. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi

1-mavzu. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Yozma ishlar o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita sifatida

Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Milliy pedagogikadagi asosiy tamoyillardan biri yozma nutqni shakllantirish masalasi ekanligi. Yozma ishlar – o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantiruvchi vosita. Yozma ishlarni tanlash tamoyillari. Og'zaki va yozma nutqni shakllantiruvchi yozma ishlar.

2-mavzu. DTSda yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy talablar. Yozma ishlarning turlari

DTSda yozma ishlarga qo'yiladigan umumiy talablar. DTS talabiga ko'ra ona tili ta'limining mazmuni. Fikrni yozma shaklda bayon etishga oid talablar.

Yozma ish va uning turlari. Yozma ish turlari: diktant, bayon, inshoning o'ziga xos jihatlari. Sodda va murakkab tarkibli matnlar.

3-mavzu. Diktant va uning turlari. Diktantga qo'yiladigan talablar

Ona tili ta'limida diktantning o'rni. Ta'limiy diktantlar: ta'kidiy, izohli, erkin, saylanma, ijodiy, lug'at v.h.k. Nazorat diktantlari. Diktant o'tkazish texnologiyasi. Nazorat diktantlarini baholash mezonlari.

4-mavzu. Bayon va uning turlari

Bayon haqida umumiy ma'lumot. Bayon va uning turlari: ta'limiy va nazorat. Ijodiy, tavsifiy, muhokama bayonning xususiyatlari. Bayon yozish usullari. Bayonni baholash mezonlari.

5-mavzu. Insho va uning turlari

Insho haqida nazariy ma'lumot. Inshoning belgilangan maqsadga ko'ra turlari: ta'limiy va sinov insholari. Insholarning mazmun-mohiyatiga ko'ra turlari: adabiy mavzudagi insholar va erkin mavzudagi insholar. Insho yozishga oid ko'nikma va malakalarni shakllantirish yo'llari. Insho o'tkazish texnologiyasi.

6-mavzu. Yozma ishlarda xatolar ustida ishlash metodikasi

Yozma ishlarni tashkil etishda uchraydigan asosiy xatolar. Imloviy xatolar va uni bartaraf etish yo'llari. Ishoraviy xatolar ustida ishlash. Uslubiy xatolar ustida ishlash. Mantiqiy xatolar va uni bartaraf etish usullari.

7-mavzu. Yozma ishlar tahlilida qo'llanadigan innovatsion texnologiyalar

Yozma ishlar tahlilida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarning roli va ahamiyati. Bugungi kundagi ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning umumiy tavsifi. Xatolar ustida ishlashda interfaol metodlardan foydalanish.

8-mavzu. Yozma ish darslarini loyihalashtirish

Yozma ish darslarini loyihalash bosqichlari. Yozma ish darslarini loyihalashda AKT dan foydalanish. Insho, diktant va bayonni loyihalash bosqichlari. Yozma ish tahlili darslarini loyihalashtirish.

9-mavzu. O'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirish mazmuni

Til sathlarini o'rganishda o'quvchilarning og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqini o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari. Til sathlarini o'rganishda og'zaki, yozma va bog'lanishli nutqni o'stirish usullari.

10-mavzu. O'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash usullari

O'quvchilar bilimini nazorat qilishda qo'llaniladigan yozma ish turlari. Test, testlarning turlari, tashkil qilish texnologiyasi.

Baholash mezonlari.

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg'ulotlarida ta'limning turli bosqichlarida tashkil etiladigan dars turlari uchun ko'rgazmali materiallar, taqdimot va grafik organayzerlar, Grammatik jadval va tarqatma materiallarning eskizlarini tayyorlash ishlari amalga oshiriladi.

Tavsiya qilinadigan laboratoriya mashg'ulotlari mavzulari:

1. 5-sinflarda so'z boyligini oshirishga qaratilgan o'yin texnologiyalarini ishlab chiqish
2. "Undov va taqlid so'zlar. Qo'shma so'zlarning tuzilishi. Qo'shma so'zlar imlosi"ga oid grammatik jadvallar tayyorlash
3. Tovush orttirilishi, almashishi va tushib qolishi, tutuq belgisining ishlatilishiga oid videodars tayyorlash
4. "Eskirgan so'zlarning tarixiy asarlarda qo'llanilishi hamda o'zlashma so'zlar" mavzusi uchun tarqatma materiallar tayyorlash
5. "Terminlar. Ilmiy terminlar. Kasbiy terminlar" mavzulari uchun didaktik materiallar tayyorlash
6. 6-sinflar uchun "O'zbek alifbosi va imlo qoidalari" mavzusiga oid videorolik tayyorlash

7. 6-sinflar uchun “Matn va mavzu. Matning turlari”ga oid videodars tayyorlash

8. 6-sinflar uchun “Asos va qo‘shimchalar. Qo‘shimchalar tasnifi” mavzusiga oid grammatik jadvallar tayyorlash

9. “Fe’lning zamon shakllari” mavzusi uchun mashq va topshiriqlar ishlab chiqish

10. 7-sinfda olmosh mavzusini o‘rganish uchun didaktik materiallar tayyorlash

11. 7-sinflar uchun yordamchi so‘zlarni o‘qitish orqali nutqiy malakaning oshirilishiga qaratilgan topshiriqlar ishlab chiqish

12. 8-sinfda “Insho turlari. Adabiy va adabiy-ijodiy mavzulardagi insholar” mavzusi uchun material to‘plash

13. “Insho rejasi. Sodda va murakkab ko‘rinishdagi rejalar” mavzusi uchun rejalar bankini yaratish

14. 8-sinfda “So‘z birikmasi va qo‘shma so‘z” mavzusi uchun videodars tayyorlash

15. “Gapning ifoda maqsadi. Mumtoz matn va lug‘atlar bilan ishlash”ga oid didaktik materiallar tayyorlash

16. 9-sinfda nutq o‘stirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ishlab chiqish

17. 10-11-sinflarda nutq madaniyatini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar ishlab chiqish

18. Akademik litseylar uchun til sathlarini amaliy egallashga qaratilgan multimedia mahsulotlari tayyorlash.

19. Ona tili darslarida eshitib va o‘qib tushunish malakasini shakllantirish

20. Ona tili darslarida og‘zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish

V. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni, alohida mashg'ulotlarni tashkil qilishda foydalaniladigan didaktik materiallarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni bajarishadi, ta'lim bosqichlari ona tili dastur va darsliklarini chuqur o'rganadilar, ulardagi har bir nazariy qoida va amaliy mashq hamda topshiriqlarni tahlil qiladilar. Shuningdek, mashg'ulotlarda "Ona tilini o'qitish metodikasi" fanidan mavjud darslik va o'quv qo'llanmalari, metodist olimlarning monografiya, qo'llanma, maqolalarini konspektlashtirish, ular asosida dars ishlanmalarini yaratish, o'rgangan va o'zlashtirgan ma'lumotlari asosida taqdimotlar tayyorlash va namoyish etish, shuningdek, metodik jurnallardagi yangi ilmiy maqolalarga annotatsiya yozish yo'llari bilan tanishadilar.

Tavsiya qilinadigan seminar mashg'uloti mavzulari:

1. Ona tilini o'qitishda qo'llaniladigan huquqiy va me'yoriy hujjatlar
2. Ona tilining o'qitilishining tarixiy taraqqiyoti
3. Ona tilini o'qitish metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi
4. Ona tili o'qituvchisi va unga qo'yiladigan kasbiy talablar
5. Ona tilini o'qitishning umumdidaktik va o'ziga xos tamoyillari
6. Ona tili ta'limiga integrativ yondashuv
7. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari
8. Ona tili darslarida ko'rgazmalilik
9. Ona tilini o'qitish metodlarining tasnifi
10. Ona tilini o'qitish metodlari tasnifi
11. Til ta'limida o'quvchi va o'qituvchi munosabatlari
12. Ona tilini o'qitish metodikasida modulli, masofaviy, eksternat, muammoli, dasturlashtirilgan ta'lim turlarining mazmuni
13. An'anaviy va noan'anaviy darslar
14. Ta'limiy va nazorat darslari mazmuni va turlari

15. Ona tili darslarida eshitib va o'qib tushunish malakasini shakllantirish
16. Ona tili darslarida og'zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish
17. Ona tili darslarida qo'llaniladigan innovatsion pedagogik texnologiyalar
18. Ona tili darslarida qo'llaniladigan axborot – kommunikatsiya texnologiyalari
19. Ona tilini o'qitishda rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi
20. Darsdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi
21. Ona tili va adabiyot o'quv xonasini jihozlash
22. Ona tilidan uzviylashtirilgan DTS va o'quv dasturi mazmuni
23. Ona tili o'quv dasturida berilgan tayanch kompetensiyalar
24. Ona tili o'quv dasturida berilgan fan (predmet)ga oid kompetensiyalar
25. Darslik va unga qo'yiladigan talablar
26. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-, 6- va 7-sinf "Ona tili" darsliklarining tuzilishi va mazmuni
27. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8- va 9-sinf "Ona tili" darsliklarining tuzilishi va mazmuni
28. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10- va 11-sinf "Ona tili" darsliklarining tuzilishi va mazmuni
29. Akademik litseylar "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligining o'ziga xos xususiyatlari
30. Ona tili o'qituvchisi faoliyatida qo'llaniladigan hujjatlar
31. Ta'lim bosqichlarida matn va uning turlarini o'rgatish
32. Ta'lim bosqichlari DTS va dasturlarida yozma ishlarga qo'yiladigan talablar tahlili
33. Yozma ishlarni tashkil etish
34. Diktant o'tkazish metodikasi
35. Bayon o'tkazish metodikasi
36. Insho o'tkazish metodikasi
37. Punktatsion xatolar ustida ishlash usullari
38. Imlo xatolari ustida ishlash

39. Dialektal xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari
40. Uslubiy xatolar ustida ishlash usullari
41. Yozma ishlarni baholash mezonlarini belgilash
42. Yozma ishlarni tilshunoslik bo'limlari bilan aloqadorlikda tashkil etish

VI. Fan bo'yicha kurs ishi

Kurs ishi fan mavzulariga taalluqli masalalar yuzasidan talabalarga yakka tartibda tegishli topshiriq shaklida beriladi. Ma'ruza mashg'ulotlarida egallangan nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, talabalarni ilmiy-nazariy qarashlar asosida umumlashma xulosalar chiqara olishga o'rgatish, ularning ijodiy tafakkurini o'stirish, ilmiy izlanishlar olib borish ko'nikmasini shakllantirish, fikrni izchil va ifodali bayon eta olishga o'rgatish fan bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlarining bosh maqsadi hisoblanadi.

Mazkur fan yuzasidan yoziladigan kurs ishi talabalarni ilmiy-ijodiy ishga yo'naltiruvchi amaliy faoliyat turi sifatida muhim ahamiyatga ega. Talaba kurs ishini yozish asosida keyinchalik yirikroq tadqiqot ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'radi. Shuningdek, fan bo'yicha tashkil etiladigan kurs ishlari talabalarni ta'limning yuqori bosqichida bitiruv malakaviy ishini yozishga tayyorlab boradi.

Kurs ishi uchun taxminiy mavzular:

1. Ona tili darslarida o'quvchilar so'z boyligini oshirish usullari
2. Umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litseylarda davlat tilida ish yuritishga oid hujjatlar bilan ishlash usullari
3. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini o'stirishda kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish
4. 6-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda nazorat ishlarining ahamiyati
5. 7-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda muammoli ta'limdan foydalanish
6. 8-sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash salohiyatini o'stirishda kichik guruhlarda ishlashni tashkil qilish

7. 9-sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda badiiy matn bilan ishlashning ahamiyati
8. Akademik litsey adabiyot darslarida og'zaki va yozma nutqni o'stirish usullari
9. O'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirishda o'quv topshiriqlarining ahamiyati
10. Ona tilidan takrorlash darslarini tashkil etish metodikasi
11. Ona tili o'qituvchisida shakllanishi zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalar
12. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish tamoyillari
13. Ilg'or pedagogik texnologiyalarning turlari va mazmuni (ona tili darslari misolida)
14. Ona tili o'qitishda integrativ yondashuv va uning mohiyati
15. Ona tili ta'limi jarayonida rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasidan foydalanish metodikasi
16. Ona tili ta'limida savodxon shaxsni kamol toptirishning tayanch va xususiy kompetensiyalari
17. Ona tilini boshqa gumanitar fanlarga bog'lab o'rganish
18. Ona tili darslarida tashkil qilinadigan ta'limiy o'yinlarning turlari va mazmuni
20. Umumta'lim maktablarida lug'at bilan ishlashni tashkil etish metodikasi (5-sinf ona tili darslari misolida)
21. Umumta'lim maktablarida ona tilini o'qitishda o'quvchilarda lingvistik va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo'llari
22. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida so'z turkumlarining uslubiy xususiyatlarini o'qitishning nazariy va metodik asoslari
23. O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda olmosh so'z turkumining o'rni
24. O'quvchilarining morfologik vositalarni nutqiy uslublarda qo'llash malakalarini rivojlantirish usullari (10-sinf ona tili darslari misolida)
25. O'quvchilarning subyektiv baho ifodalovchi qo'shimchalar uslubiyati ustida ishlash malakalarini rivojlantirish (10-sinf ona tili darslari misolida)

26. 10-sinf ona tili darslarida zamon qo'shimchalarining uslubiy xususiyatlarini o'qitish metodikasi
27. 10-sinf ona tili darslarida o'quvchilarni ish qog'ozlari bilan ishlashga o'rgatish usullari
28. Akademik litseylarda fonetika, orfoepiya va orfografiyani o'rganish metodikasi
29. Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishda badiiy va matbuot materiallaridan foydalanish
30. Ona tili darsliklarining tarkibi va mazmuni, darsliklar ustida ishlash
31. Yozma ishlarni tashkil etish mazmuni va tamoyillari
32. Yozma ishlar – o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita
33. Yozma ish turlari bo'yicha taqdimot tayyorlash
34. Diktant va uning turlari bo'yicha material to'plash
35. Bayon o'tkazish bo'yicha matn to'plash
36. Insho nazariyasi haqida
37. Imlo xatolari ustida ishlash bo'yicha keyslar bankini yaratish
38. Yozma ishlarni baholash mezonlari bo'yicha tavsiya tayyorlash
39. Yozma ishlarni tilshunoslik bo'limlari bilan bog'lab o'rgatish metodikasi
40. Xatolar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish
41. Ona tili darslarida og'zaki va yozma nutq malakasini shakllantirish
42. Ona tili darslarida eshitib va o'qib tushunish malakasini shakllantirish

VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ta'limda ona tilini o'qitish metodikasi fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha ona tilini o'qitish metodikasi fani bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabanning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fan bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ta'lim mavzulari:

1. Ona tilini o'qitish metodikasi fani bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish
2. Ona tilidan darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish
3. Ona tilidan tarqatma materiallar tayyorlash. (Bo'limlar bo'yicha)
4. O'qitish metodlari bo'yicha materiallar tayyorlash
5. Ta'lim bosqichlarida so'z birikmasi sintaksisini o'qitish bo'yicha dars ishlanmalari tayyorlash
6. Ona tilidan nazorat shakllarini tashkil etish
7. Test texnologiyalari bo'yicha materiallar tayyorlash
8. Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fani bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish.
9. Yozma ishlar – o'quvchilar tafakkurini shakllantiruvchi vosita.
10. Yozma ish turlari bo'yicha taqdimot tayyorlash.
11. Diktant va uning turlari bo'yicha material to'plash.
12. Bayon o'tkazish bo'yicha matn to'plash.
13. Insho nazariyasi haqida.
14. Imlo xatolari ustida ishlash bo'yicha keyslar bankini yaratish.
15. Yozma ishlarni baholash mezonlari bo'yicha tavsiya tayyorlash.
16. Yozma ishlarni tilshunoslik bo'limlari bilan bog'lab o'rgatish metodikasi.
17. Xatolar ustida ishlashda innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

18. Ona tili dasrlarida eshitib va o'qib tushunish malakasini shakllantirish.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan portfolio, dars ishlanmasi, ilmiy maqola, taqdimot, grafik organayzer, grammatik jadvallar tayyorlash tavsiya etiladi.

VII. Malakaviy amaliyot

Pedagogik amaliyot O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirligining "Pedagogika ta'lim sohasi bo'yicha kadrlar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari bitiruvchi kurs talabalarining malakaviy pedagogik amaliyotlarini doimiy yashash joylarida o'tashlarini tashkil etish to'g'risida"gi (2019-yil 5-martdagi) qo'shma qarori asosida tashkil etiladi.

Pedagogik amaliyot umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda o'tkaziladi va unda talabalar oliy ta'lim muassasasida Ona tilini o'qitish metodikasi fanidan egallagan nazariy va metodik bilimlarini amaliyotga tatbiq etadilar.

Talabalar amaliyot davomida 5-11-sinflarning Ona tili hamda akademik litseylarning Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini kuzatadilar, ta'lim muassasasi malakali o'qituvchilarining 20-25ta darsini o'rganish va tahlil qilish asosida Ona tili hamda Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarini tashkil etish ko'nikmasini egallaydilar.

Talabalar ta'lim muassasasida birlashtirilgan pedagog rahbar nazorati ostida muassasadagi o'quv hujjatlari bilan tanishib chiqilishlari, Ona tili hamda Hozirgi o'zbek adabiy tili fanlaridan 8ta sinov darsini amalda mavjud bo'lgan dasturga binoan mashg'ulot materiallari asosida mavzu bo'yicha dars (faol amaliyot) olib borishlari lozim.

Shuningdek, talabalar ta'lim muassasasida tashkil etilgan ona tili faniga oid to'garaklar faoliyatini o'rganishlari, birlashtirilgan sinf o'quvchilari orasida 2-3ta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqishlari hamda uni o'tkazishlari lozim.

VIII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. – T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
2. G'ulomov A., Qodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. – T: Fan va texnologiyalar, 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni. 2019-yil, 29-aprel.
2. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V., Jo'raboyeva Z. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan 4-nashri. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 224 b.
3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. – T.: Tasvir, 2017. – 208 b.
4. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashr. – T.: Ma'naviyat, 2017. – 160 b.
5. Qodirov M., Ne'matov H., Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014. – 144 b.
6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. – T.: Tasvir, 2010. – 128 b.
7. Mahmudov N.v.b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. – 112 b.
8. Mahmudov N.v.b. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – 112 b.
9. Mavlonova K. O'quvchining yozma nutqi qanday shakllanadi? // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2015. – № 11. – B. 24-25.

10. Мавлонова К. Ўқувчи иншони қандай ёзмокда? // Umumta'lim fanlari metodikasi. – Тошкент, 2017 йил, №4. –Б. 6-8.
11. Kompetensiyaga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyot, o'zbek tili (5-9 sinflar). Toshkent. 2016.
12. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. – T: Yangi asr avlodi nashriyoti, 2005.
13. Madayev O., Sobirov A., Xolmanova Z., Toshmirzayeva Sh., Ziyodullayeva G., Shamsiyeva M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.
14. Oxunjonova O. Yozma ishlarni o'tkazish metodikasi. – Toshkent, 2014.
15. Йўлдошев Р.А., Рихсиева М.М. Иншолардаги матний хатолар, уларни тузатиш методикаси. –Тошкент, 2018.

Internet saytlari

<http://uza.uz/>

<http://www.zivonet.uz/>

<http://www.pedagog.uz/>

www.forum.uz

www.ilm.uz

www.insho.uz

